

Bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotlarni tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning o‘rni

Роль педагогических и психологических условий в формировании навыков анализа информации и квалификации будущих учителей

The role of pedagogical and psychological conditions in the formation of information analysis skills and qualifications of future teachers

Nafisa Muratova¹

1. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarcand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, axborotlarni tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье раскрывается роль и значение педагогико-психологических условий для повышения интереса к самостоятельному обучению, формирования умений и компетенций анализа информации у будущих учителей.

Abstract. This article reveals the role and significance of pedagogical and psychological conditions for increasing interest in independent learning, developing the skills and competencies of information analysis among future teachers.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ta’lim, axborot tahlili, pedagogika, psixologiya, oily ta’lim, talaba, axborot jamiyati, mutaxassis, kompetensiya, strategiya, ijodkorlik.

Ключевые слова. Самостоятельное образование, анализ информации, педагогика, психология, семейное воспитание, студент, информационное общество, эксперт, компетентность, стратегия, творчество.

Keywords. Independent education, information analysis, pedagogy, psychology, family education, student, information society, expert, competence, strategy, creativity.

Ilmiy-teknika taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi chuqur o‘zgarishlar manbalariga aylandi va oliy ta’limning paradigmasini o‘zgarishiga olib keldi. Zamonaviy ta’lim sharoitida oliy ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ta’lim, fan va madaniyato‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ilmiy soha, ta’lim, madaniy va axborot muhitiga sho‘ng‘ish orqali talabaning to‘liq ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish, axborot jamiyatining turli sohalarida samarali faoliyat ko‘rsatishga qodir oliy ma’lumotli kasbiy va madaniy mutaxassislarni tayyorlash.

Oliy ta’limning asosiy vazifasi – axborot jamiyatining turli sohalarida kasbiy faoliyatni yuqori intellektual va ijodiy darajada amalga oshirishga tayyor bo‘lgan, ancha murakkab muammolarni hal etishga qodir, yangi muammolarni o‘rtaga qo‘yishga qodir, yangi ijodiy yechimlarni topish kompetensiyasiga ega mutaxassisni tayyorlash vazifasidir. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda.

Hozirgi sharoitda mamlakatning raqobatbardosh salohiyati to‘liqligicha fuqarolarning bilim darajasi va sifatiga, ularda olingan ma’lumotlar bilan samarali ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liq. Binobarin, oliy ta’limning asosiy e’tibori bilimlarning oddiy uzatilishidan, ya’ni “an’anaviy ta’lim

Nafisa Muratova

O‘zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
muratovanafisa06@gmail.com

paradigma” sidan talabalarga ta’lim faoliyati strategiyalarini o’zlashtirish, axborot muhitida harakat qilish, o’z bilimlarini mustaqil ravishda qurish va erkin tarzda shakllantirish imkonini beradigan samarali paradigmaga o’tmoqda.

Keyingi yillarda O’zbekiston ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari darajasiga olib chiqish bo‘yicha yuksak darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimi sifat va samaradorligini oshirishda talabalarning mustaqil ishlarining roli ham ortib bormoqda va shu munosabat bilan zamonaviy ta’lim amaliyotida talabalarning mustaqilligi va ijodkorligini rag‘batlantiradigan ish shakllari va usullari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O’zbekiston Respublikasida ta’limni globallashtirish va uni modernizatsiyalash sharoitlarida ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish etish muammosi O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘z yechimini topadi, unda ta’lim tizimi mazmunini sifatli yangilash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. 2017-2021-yillar uchun O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida fan va ta’limni takomillashtirishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi, ijtimoiy sohani rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan, bu esa o‘z navbatida, talabalarning mustaqil ta’limini zamonaviy, innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, samarali tashkil etish muammosini hal etadi. Bugungi kunda talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, ularni axborotlar bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning isboti sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-3080 Farmoni [1, 6-7], “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son Qarorlarida o‘z ifodasini topgan.[2, 10].

Adabiyotlar tahlili. Muammo bo‘yicha xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Shaxs va axborot muhitio‘rtasidagi axborot va axborot almashish jarayonlari tushunchasi A.Ya. Gilyarevskiyning asarlarida ko‘rib chiqilgan., V.M.Kaziev, A.Ouens, A.B.Sokolov, V.Surnin, I.S.Turov, L.Vogel, P.Frindland, A.I.Chernoy va boshqalar.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muammosini X.A.Bernshteyn, A.N. Leontyev kabi olimlar o’rgandilar. Bu mualliflar asarlarida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni inson faoliyati mexanizmi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi, bunda ko‘nikma harakatlar majmui bilan bog‘liq bo‘lib, ularning xususiyatlari shaxsning muayyan harakatlarni bajarish qobiliyatlari bilan bog‘liqdir.

Talabalarning mustaqil ishlarini pedagogik ta’minalash muammolari bilan rossiyalik quyidagi olimlar tadqiqot olib borishgan: O.S.Gazman, Y.A.Dubrovskaya, G.B.Kornetov, N.B.Krilova, N.N.Mixaylova, A.V.Mudrik, S.T.Rudkova, I.A.Slavina, L.G.Tarita, S.N.Chistyakova, S.M.Yusfinlardir.

Mustaqil ishslashga tizimli yondashish va uni faollashtirish usullari bo‘yicha A.N.Aleksyuk, Y.K.Babanskiy, M.G.Garunov, V.I.Zagvyazinskiy, A.G.Moliboga,

G.A.Nizomovlar; mustaqil ish mazmuni va shakllari bo'yicha Y.K.Babanskiy, B.P.Yesipov, I.Y.Lerner, P.I.Pidkasistoy, A.V.Usovalar; kognitiv mustaqillikni rivojlantirish bo'yicha Y.A.Golanta, N.A.Polovnikova, G.I.Shchukinalar ilmiy ish olib borishgan.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim uni sifatli tashkil etish, axborotlar bilan ishslash, tahlil qilish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyatga undash uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko'rsatmalari bo'yicha bir qator o'zbek olimlar, jumladan, M.M.Aripov [3, 18], A.A.Abduqodirov [4,14], R.Boqiyev [5, 36], S.S.G'ulomov, A.X.Abdullayev [9, 34-36], M.X.Lutfullayev [12, 125], U.Yuldashev [9, 40-41], L.I.Shibarshova [10, 56], S.I.Raxmankulova [11, 42-45], R.X.Xamdamov, B.A.Mazgarov [14, 45], N.I.Tayloqov [13,75], Begimqulov U.Sh [6- 7, 25-28] va boshqalar o'z ishlarida masofadan o'qitish texnologiyasi istiqboli hamda rivojlanish bosqichlari va uning o'quv materiallarini yaratish masalalariga to'xtalishgan.

Natija va muhokama. Axborot jamiyati, axborot oqimlarining jadal o'sib borayotgan sharoitida axborotni tanlab o'zlashtira oladigan, yangi axborot texnologiyalariga tez va adekvat munosabatda bo'ladigan, axborot muhitida faol ishlay oladigan shaxsni shakllantirish zarurati tug'iladi. Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar davrida shaxsning kasbiy o'zini-o'zi anglashining bilim va axborotni uzuksiz egallashda o'quv jarayonida shakllangan ko'nikma va malakalarga bog'liqligi to'liq namoyon bo'lmoqda.

Mavjud vaziyat ta'lim tizimini bir tamondan o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasiga ega faol shaxsni tayyorlashga, ikkinchi tamondan jamiyat va davlat manfaati yo'lida axborot faoliyatiga rahbarlik qiladigan malakali mutaxasislarga qaratilgan.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatimizni axborotlashtirish global xarakterga ega va o'quv jarayonini tashkil etishga yangicha zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Hozirgi vaqtida ko'plab oimlarning e'tibori axborot muhitida samarali mehnat qilishga tayyor mutaxassisni shakllantirish muammosiga qaratilgan. Ta'limning zamonaviy paradigmasi faqat ijtimoiy tajribani uzatishni nazarda tutuvchi ta'limning "rasmiy-ma'rifiy" modelidan o'quvchilarga mustaqil ravishda o'z bilimlarini qurish imkonini beradigan "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim"ga o'tishga qaratilmog'i lozim.

Axborot muhitida samarali faoliyat ko'rsatishga tayyor mutaxasisni shakllantirish doirasida jamiyatni axborotlashtirish va oliy ta'lim o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi axborot ehtiyojlarini qondirish uchun maqsadli faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxsning axborot faolligini oshirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida talabalarning axborotni tahlil qilish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishda bir qator umumiy pedagogik qoidalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Axborotlar bilan ishslash ko'nikma va malakalarini shakllantirish samaradorligi pedagogik tizim tarkibiga optimal tarzda kiritilgan o'quv jarayoni doirasidagina amalga oshirilishi mumkin;

- Axborotlar bilan ishlash hamda ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tarkibida maqsadli komponentni amalga oshirish tashqi rag‘batlantirish motivlarini shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsaga aylantirish orqali amalga oshiriladi;
- faol-harakat komponentini shakllantirish olingan axborotni qayta ishlash jarayonida asta-sekin murakkablashib boruvchi vazifalar bilan faoliyat algoritmini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘yidagi pedagogik va psixologik shart -sharoitlarga amal qilingan taqdirda samarali bo‘ladi:

- talabalarda axborotlar bilan ishlash uchun ijobiy motivatsiya mavjud bo‘lishi lozim;
- o‘qituvchi tomonidan talabalar shaxsiyatining psixologik va intellektual xususiyatlarini hisobga olinish zarur;
- axborot faoliyatini amalga oshirishda talabalarning bilish faolligini oshirish lozim;
- o‘qituvchi ta’lim tashkilotchisi sifatida talabalar dialektik tafakkurini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida axborot tahlili va mustaqil ta’lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, talabalarni axborotlarni izlash, tahlil qilish hamda mustaqil ishlashga o‘rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa olish malakasiga ega bo‘lgan, istiqboliy vazifalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-3080 Farmoni.
2. “Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-sun Qarori.
3. Aripov M., Tillayev A. Masofaviy ta’lim // Fizika, matematika, informatika jurnali. – T., 2002. №2. –B. 12-18.
3. Abduqodirov A.A. va boshqalar. “Axborot texnologiyalari” –T., 2002. – 148 b.
4. Boqiyev R.R., Mamarajabov M.E. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish // Pedagogik mahorat jurnali. –T., 2003 №3. –B
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 3 b
6. Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta’limni tashkil etish. // “Pedagogik ta’lim” jur, № 1, 2004.
7. Boqiyev R.R., Mamarajabov M.E. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish // Pedagogik mahorat jurnali. –T., 2003 №3. -B 69-72.

8. G‘ulomov S.S., Abdullayev A.X. Виртуальные стенды для имитации функций учебных мастерских и лабораторных установок. –Т., МВИССО, 2002. - 23 с.
9. Shabarshova L.I., Fyodorova Ye.V. Distansionnoye obuchenije v universitete Merilenda: opyt i adaptasiya v Uzbekistane // Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. 13-14 may 2002. -T., 2002. –B. 22-24.
10. Raxmankulova S.I., Pechenko V.V. Sistema distansionnogo obucheniya // Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. 13-14 may 2002. – T., 2002-12-14. b.
11. Lutfillayev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegrasiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -T.,: O‘zDPITI, 2006. –212 b. 62
12. Tayloqov N.I. Masofaviy o‘qitishning konseptual asosi – shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv // Axborot-kommunikasion texnologiyalar o‘quv jarayonida: muammolar, yechimlar va istiqbollar: Respublika ilmiy-metodik konferensiyasi materiallari. 25-26 dekabr 2007. –Samarqand, 2007. –B. 126-129.
13. Xamdamov R.X., Mazgarov B.A. Masofaviy o‘qitish tizimini qo‘llash masalasi haqida // Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. 13-14 may 2002. – T., 2002. –B. 60-61.